



TELEKOMMUNIKATSIYA KOMPANIYALARIDA FOYDA SOLIG'I AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

PhD, dots. Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-8015-957X

[*phdildora@mail.ru*](mailto:phdildora@mail.ru)

Oxunjanova Mohchehra Xolmurot qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

[*mohchehraoxunjanova@gmail.com*](mailto:mohchehraoxunjanova@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqola telekommunikatsiya kompaniyalarida foyda solig'i auditining o'ziga xos xususiyatlari haqida bo'lib, unda telekommunikatsiya kompaniyalarida audit o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari, billing tizimining afzalliklari, shuningdek amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: telekommunikatsiya kompaniyalarida foyda solig'i auditi, milliy buxgalteriya hisobi standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), telekommunikatsiya va mobil aloqada billing tizimi, kompleks audit o'tkazishning zarurligi, foyda solig'ining boshqa hisobotlarga ta'siri.

ОСОБЕННОСТИ ПРОВЕРКИ НАЛОГА НА ПРИБЫЛЬ В ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ КОМПАНИЯХ

PhD, доц. Пашаходжаева Дилдора Джабборхоновна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Охунжанова Мохчехра Холмуратовна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье речь идет об особенностях проверки налога на прибыль в компаниях связи, в ней описаны особенности проведения проверки в компаниях связи, преимущества биллинговой системы, а также задачи, которые необходимо выполнить.

Ключевые слова: проверка налога на прибыль телекоммуникационных компаний, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), биллинговая система в сфере телекоммуникаций и мобильной связи, необходимость проведения комплексной проверки, влияние налога на прибыль на другие отчеты.

SPECIAL FEATURES OF PROFIT TAX AUDIT IN TELECOMMUNICATION COMPANIES

*PhD, assoc. prof. Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna
Samarkand Institute of Economics and Service
Okhunjanova Mokhchekhra Xolmuratovna
Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract. *This article is about the specifics of the profit tax audit in telecommunication companies, it describes the specifics of conducting an audit in telecommunication companies, the advantages of the billing system, as well as the tasks that need to be performed.*

Keywords: *profit tax audit in telecommunications companies, national accounting standards, international financial reporting standards (IFRS), billing system in telecommunications and mobile communications, the need for a comprehensive audit, the impact of profit tax on other reports.*

Kirish.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan «Raqamli O'zbekiston - 2030» Davlat strategiyasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, milliy raqamli texnologiyalar bozori, ta'lim va axborot texnologiyalari sohasida malaka oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori. Bu qarorlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va ilg'or jahon tajribasiga asoslangan eng zamonaviy aloqa xizmatlarini joriy etish eng qisqa vaqt ichida «Raqamli O'zbekiston»ga o'tish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bu o'z navbatida telekommunikatsiya korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun axborot foydalanuvchilarga sifatli va shaffof bo'lgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish zaruriyatini oshiradi. Ushbu vazifani amalga oshirishda auditning roli beqiyosdir. Telekommunikatsiya korxonalarida audit o'tkazish bo'yicha adabiyotlarning yetarli darajada emasligi ilmiy tadqiqotimizni tanlagan mavzumizda olib borish dolzarbligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Hozirgi kunga kelib global jamiyatda zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasining barpo etilishi raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biridir. Foyda solig'i auditi esa telekommunikatsiya xarajatlarini boshqarish, daromadlarni shakllantirish va nazorat qilish uchun juda muhimdir. Bu korxonalarda hisob-kitob ishlarini aniqlashga, telekommunikatsiya xarajatlarini optimallashtirishga va keraksiz xarajatlarni bartaraf etish va telekommunikatsiya xizmatlaridan samarali foydalanishni ta'minlash orqali raqobatdosh ustunlikka erishishga yordam beradi.

Jahon miqyosida telekommunikatsiya auditining dolzarbligi, o'ziga xos xususiyatlari borasida iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan keltirilgan fikr-mulohazalari va tadqiqot natijalariga to'xtalib o'tsak.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida auditning roli haqida yozgan Baranova (2009) kompyuterlashtirilgan audit tizimlari (billing, 1C) yordamida moliyaviy hisob-kitoblarning shaffofligini oshirish mumkinligini ko'rsatgan. Ushbu tizimlar yordamida auditorlik xizmatlari yanada aniqlashtirilishi va moliyaviy ma'lumotlarning tahlili osonlashishi mumkinligi o'z aksini topgan.

Shirinov (2016) ta'kidlashicha, telekommunikatsiyada billing tizimining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi sifatidagi ahamiyati u tomonidan bajariladigan funksiyalarda yorqin namoyon bo'ladi. Chunonchi, telekommunikatsiya sohasida billing tizimini kompyuterlashtirilgan hisob tizimlari bilan integratsiyalashtirish ularda olib boriladigan operativ hisob, boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobni ham avtomatlashtirilgan tarzda yuritish imkonini beradi.

Korxonalarda auditning ayrim nazariy va metodologik jihatlari, mamlakatimiz olimlaridan Dusmuratov, Ibragimov, Musayev, Tashnazarov (2019), Urazov (2019), Xasanov (2011) va boshqa olimlar qalamiga mansub monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy maqolalarda yoritilgan. Lekin ushbu tadqiqotlarda telekommunikatsiya korxonalarida foyda solig'i auditining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilmagan.

Mazkur ilmiy ishlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan audit usullari bugungi iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, kompaniya va tashkilotlar uchun moliyaviy xavflarni kamaytirish va nazorat tizimlarini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma'ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, auditning xalqaro standartlari, Nizomlar, yo'riqnomalar, xoriyda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog'i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarining amaliy materiallari tashkil etadi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda telekommunikatsiya xizmatlari kundalik iste'mol tarkibida oziq-ovqat, uy-joy kommunal xizmatlari qatorida mustahkam o'rin egallaydi. Aholining telekommunikatsiya xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasi aholi turmush sifati ko'rsatkichlarini baholovchi tizimga kiritilgan. Telekommunikatsiya xizmatlari bozori butun mamlakat iqtisodiyotining "qon aylanish tizimi" hisoblanadi.

"Telekommunikatsiya" atamasi texnik vositalardan foydalangan holda telekommunikatsiyalar tarmog'ining so'nggi nuqtalarida orasidagi masofaga signallar, belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar yoki axborotning boshqa turlarini o'tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektrmagnit tizimlaridan foydalangan holda uzatish, qabul qilish, qayta ishlash va ma'lumotlar almashish vositasidir.

Telekommunikatsiya xizmatlariga quyidagilar kiradi: kabel, radioeshittirish, relelyli yoki sun'iy yo'ldosh aloqa tizimlari, shu jumladan telefon, telegraf aloqalari, aloqa linyalari, tovush, tasvir va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini ijaraga berish xizmatlari orqali ovozli axborot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish.

1-rasmdagi diagrammadan ko'rish mumkinki, raqamli iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar ichida aloqa xizmatlaridan so'ng telekommunikatsiya xizmatlari ikkinchi o'rinda turadi va uning jami xizmatlar tarkibidagi ulushi 25 foizga teng. Mamlakatimizning YaIMning o'sishi bilan birga telekommunikatsiya xizmatlari hajmi ham oshib bormoqda. Xususan 2023 yilda telekommunikatsiya xizmatlari 2022 yilga nisbatan 20%ga oshgan.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyotda xizmatlari ulushi

Bugungi kunda har bir xonadon har bir shaxs, har bir tashkilotga telekommunikatsiya xizmatlari zarur. Shu sababli ushbu xizmatlarni yanada rivojlantirish, erkin raqobat muhitini yaratish, ko'proq foyda olish maqsadida har bir telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, auditorlik tashkilotlari xizmatlaridan foydalanadilar. Auditorlik tekshiruv davlat, jamiyat, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar uchun birdek foydalidir. Auditorlik tekshiruvlari orqali subyektlarning moliyaviy holati va harakati, qonunchilik doirasida buxgalteriya hisobining yuritilishi va moliyaviy hamda soliq hisobotlarining shaffofligi tekshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijasi bu foydadir. Ushbu foydadan korxonalar, ta'assischilar, investorlar davlat ham birdek manfaatdorlar. Shuning uchun auditorlik tekshiruvida korxonaning foyda ko'rsatkichlari va foyda solig'i bo'yicha auditorlik tekshiruv natijalari barcha manfaatdor tomonlar uchun zarurdir.

Xususan, bu borada mamlakatimizda auditorlik tekshiruvini shaffofligini va investitsion muhitni yaratish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorning (PQ-4611, 2020) qabul qilinishi esa ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning normativ-huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi hamda bu sohada mutaxasislarni tayyorlash masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishi va bu orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va boshqa masalalar bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kunda telekommunikatsiya kompaniyalarining bir nechta filiallari va sho'ba korxonalari mavjud bo'lib, MHXSga muvofiq konsolidashtirilgan moliyaviy hisobotlar tuzadilar va taqdim etadilar. Shuningdek, ushbu korxonalarining aksiyadorlar paketida davlat ulushi 50%dan yuqori bo'lib, yirik soliq to'lovchi korxonalar toifasiga mansubdir.

Telekommunikatsiya subyektlarini foyda solig'i auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning bir nechta o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ushbu maqolada shu haqida so'z yuritimiz, ular quyidagilar:

1. Telekommunikatsiya va mobil aloqada billing tizimi;

2. Kompleks audit o'tkazishning zarurligi;
3. Foyda solig'ini boshqa hisobotlarga ta'siri.

Foyda solig'i auditi turli xil vositalar va texnologiyalardan, jumladan, telekommunikatsiya xarajatlarini boshqarish dasturidan, hisob-fakturalarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlaridan va moliyaviy faoliyat hisobotlaridan foydalanadi. Ushbu vositalar billing tizimi bo'lib, xarajatlar markazlarini boshqarishga va resurslarning taqsimlanishini optimallashtirishga yordam beradi.

Telekommunikatsiya va mobil aloqada billing – abonent schyotidan unga ko'rsatilgan xizmatlar (internet-trafik, mobil-trafik, SMS va shu kabilar) uchun mablag'larni xizmatlar ko'rsatilgan chog'ida undirilishiga imkon beruvchi «real vaqt» rejimi. Bunday rejim billing tizimidan dasturiy ta'minotni yuqori ishonchliligi va ma'lumotlar bazasining uzluksiz ishlashini talab etadi.

Billing - telekommunikatsiya turidan qat'iy nazar, aloqaning barcha tijorat operatorlari (turg'un va mobil aloqa operatorlari, internet- telefon, virtual operatorlar, internet-provayderlar, tranzit-raqamli trafik operatorlari, raqamli televideniye provayderlari) faoliyatining muhim komponentidir. Ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi subyektlarni billing tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, aynan billing orqali ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi subyektlar o'z mijozlariga tegishli schyotlarni taqdim etadi va shu asosda faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi.


Billing tizimi - buxgalteriya tizimi, dasturiy ta'minot, boshqacha aytganda operatorlar, shu jumladan telekommunikatsiya sohasi operatorlari uchun maxsus ishlab chiqilgan «soft», ya'ni dasturiy vosita.

Billing tizimlarida shakllanadigan axborotlar telefon aloqa xizmatlari operatorlarida ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar, ularga qilingan sarf-xarajatlar, foyda yoki zararlar, mijozlar bilan hisob- kitoblar, debitorlik va kreditorlik qarzarlar, shuningdek faoliyatning boshqa ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirishda asosiy manba hisoblanadi. Binobarin, billing tizimlarini telefon aloqa xizmatlari operatorlarida qo'llaniladigan kompyuterlashtirilgan hisob tizimlari bilan integratsiyalashtirish ularda olib boriladigan operativ hisob, boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobni ham avtomatlashtirilgan tarzda yuritish imkonini beradi.

Auditorlik rejasi va dasturida bajariladigan tadbirlarni amalga oshiruvchi auditorlar o'ziga birlashtirilgan tadbirlar yuzasidan audit qilishning taxminiy ketma-ketligini belgilab oladi va shunga asosan auditorlik tekshiruvini ma'lum tartibda amalga oshiradi. Bu auditorlik ishi sifati hamda samaradorligini ta'minlaydi. Foyda solig'i auditi boshqa obyektlarga nisbatan risk darajasi yuqori bo'lgan tekshirish obyektlari hisoblanadi. Har qanday holatda ham foyda solig'ini audit qilishda bir tomonlama yondashib bo'lmaydi, ya'ni haqiqiy natijaga erishish uchun tematik emas kompleks audit o'tkazilsa risk darajasi pasayishiga erishiladi.


Kompleks audit o'tkazish bosqichini auditorlar dastlabki bosqichda tuzilgan dasturga asosan olib boradilar. Dasturga kiritilgan har bir obyekt yoki hujjatni tekshirishda auditorlar aniq ketma-ketlikka amal qilishlari, tekshirishni yuqoridan pastga qarab (deduksiya) yoki pastdan yuqoriga qarab (induksiya) tekshirish usullaridan birida amalga oshirishlari lozim. Bizningcha, pastdan yuqoriga qarab tekshirish eng qulay usuldir. Foyda solig'i auditini kompleks o'tkazishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish maqsadga muvofiqdir (2-rasmga qarang).

Telekommunikatsiya korxonalarida foyda solig'ini tekshirishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri barcha moliyaviy holat va harakatga doir hisobotlarning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir. Bunda auditor korxonaning buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari hamda soliq hisobotlaridagi summalarning realligiga ahamiyat berishi lozim.



2-rasm. Foyda solig'i auditining kompleks o'tkazish ketma-ketligi

Foyda solig'iga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar soliq bazasi va uning stavkasini to'g'ri qo'llanilganligiga bog'liqdir. Foyda solig'ini audit qilishda quyidagi hisobotlar bir-biriga chambarchas bog'langan (3- rasmga qarang).



3- rasm. Moliyaviy hisobotlarning o'zaro bog'liqligi

Xulosa va takliflar.

Telekommunikatsiya korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy standartdan xalqaro buxgalteriya standartlariga transformatsiya qilish jarayoni hozirgi iqtisodiy sharoitda zaruriy hisoblanadi.

Telekommunikatsiyada foyda solig'i auditori korxonalar uchun telekommunikatsiya xarajatlarini optimallashtirish, hisob-kitob xatolarini bartaraf etish va sezilarli xarajatlarni tejash uchun zarurdir.

Telekommunikatsiya korxonalarida auditorlar auditning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, biz tomonimizdan taklif etilgan kompleks auditni o'tkazish ketma-ketligiga amal qilinib audit o'tkazilsa, telekommunikatsiya korxonalarining raqobatbardoshligi va sanoat tendensiyalariga mos kelishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Baranova O.V. (2009) *Kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash sharoitida axborot tizimlarining auditi.*

Pashaxodjayeva D.D.(2021) *Foyda solig'i hisobi va auditini takomillashtirish dissertatsiyasi.*

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-3832-son."Raqamli O'zbekiston –2030" dasturi.

Shirinov U.A.(2016) *Billing tizimlari va ular asosida telefon aloqa xizmatlari hisobini tashkil etish. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr.*

Tashnazarov S.N. (2019) *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik – T. "Iqtisod-Moliya".*

Urazov K.B. (2019) *Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. T.: "Fan va texnologiya.*

Xasanov B.A., Xoshimov A.A. (2011) *Boshqaruv xisobi. Darslik. - T.: Yangi nashr, - 312 b.*